

NAVOIYGA IZDOSHLIK SAODATI

Ma'rifat ALIMQULOVA

ToshDO'TAU I bosqich tayanch doktoranti

E-mail: mb19941408@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804845>

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy va uning izdoshi Zokirjon Furqat ijodida dunyo timsoli, Me'roj voqeasining talqini, ularning tasavvufiy g'oyalari va poetik uslubi tahlil qilinadi. Navoiy ijodining dunyo miqyosidagi ahamiyati va uning asarlarining turk dunyosi adabiyotiga ta'siri o'rganiladi. Furqat esa Navoiyning adabiy an'analarni davom ettirgan shoir sifatida, ushbu an'analarni poetik va badiiy jihatdan rivojlantirganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Dunyo timsoli, Me'roj voqeasi, tasavvuf, ma'naviyat, poetik obraz, lirik she'riyat, o'zbek adabiyoti, izdoshlik, an'ana.

Аннотация: В статье анализируются образы мира, интерпретация события Вознесения, их мистические идеи и поэтический стиль в творчестве великого узбекского поэта Алишера Навои и его последователя Закиржона Фурката. Будет изучено мировое значение творчества Навои и влияние его произведений на литературу тюркского мира. Фуркат, как поэт, продолжатель литературных традиций Навои, отличается поэтическим и художественным развитием этих традиций.

Ключевые слова: Символ мира, событие Вознесения, суфизм, духовность, поэтический образ, лирическая поэзия, узбекская литература, последовательность, традиция.

Annotation: This article analyzes the depiction of the world's symbol and the interpretation of the Miraj event in the works of the great Uzbek poet Alisher Navoi and his follower Zokirjon Furqat, focusing on their Sufi ideas and poetic style. The global significance of Navoi's work and its influence on Turkish world literature are examined. Furqat, as a poet who continued Navoi's literary traditions, distinguishes himself by poetically and artistically developing these traditions further.

Key words: world's symbol, Miraj event, Sufism, spirituality, poetic imagery, lyrical poetry, Uzbek literature, succession, tradition.

Buyuk adibimiz, shoir, olim, yirik davlat arbobi hazrat Alisher Navoiyning so'nmas quyosh yanglig' ijodi, umrboqiy asarlari nafaqat o'z davrida turkiy adabiyotimizning markazi bo'lib kelgan balki hozir ham dunyo ahlining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Uning ijodi XV asrning o'zidayoq Xuroson diyorida mashhur bo'lib qolmasdan, turk dunyosining boshqa o'lkalarida ham katta qiziqish bilan kutib olindi. Atoqli turk allomasi M.F.Ko'prulining quyidagi fikrlari ham buni isbotlaydi: "Navoiyning asarlari turk dunyosining har tomonida – Onado'li va Rum elida Xuroson va Iroqda, Qrim va Volga bo'ylarida, shuningdek, turkmanlar orasida, hatto Hindistondagi turk saroylarida ham sevib o'qilgan". Darhaqiqat, uning muxlislari, izdoshlari bu tunganmas sarchashmadan hanuz bahra olmoqdalar. Garchi ular ulug' Navoiy adabiy merosini o'rganish borasida jiddu jahd

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bilan katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Zeroki, mutafakkurimizning ushbu so‘zlari ham bugungi badiiy haqiqatning bashorati yanglig‘ yangraydi:

*Ne mulk ichraki, bir farmon yubordim,
Aning zabtig‘a bir devon yubordim.*

Navoiydan keyin ijod qilgan turkiyzabon qalam sohiblarining ko‘pchiligi uning muhib va muxlislari edi. Ular Navoiy ijodini o‘qib undan ta’sirlanib, turli shakllarda asarlar yozishgan. Ulug‘Navoiyga izdoshlik saodatiga erishgan shoirlardan biri, shubhasiz, bu Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat edi.

Furqat she’riyatda mumtoz adabiyot vakillari, xususan, shoir buyuk Navoiy an’analarini munosib davom ettiribgina qolmasdan unga tamomila yangicha ruh berdi. Furqatshunos N. Jabborov Furqatning Navoiy ana’analarini munosib davom ettirilishi va yangilanishini quyidagi tamoyillar asosida izohlaydi:

- “Poetik mazmun yangilanishi,
- poetik obraz takomili,
- poetik janr yangilanishi,
- vaznda tatabbu qilish.” [1,207].

Zokirjon Furqat hazrat Navoiy an’analarining munosib davomchisi bo‘lib qolmasdan, lirikadagi badiiy mahorati sababli Navoiydagi poetik obrazlarni takomil darajasiga yetkazdi. Ma’lumki, “lab” so‘zining arabiy harflar bilan ifodasida nuqta “lab” so‘zining ostiga ya’ni ‘B’ harfining tagiga qo‘yilishi kerak. Ammo ma’shuqaning xoli ya’ni nuqta esa uning labi ustiga qo‘yilgan. Lirik qahramonning taajjubi shuki, aslida nuqta labni ustida yozilishi kerakligi, bu “xato” emasmikin degan shubhadaligidir. Navoiyning quyidagi baytida ham shu ma’nolar jozibali ifodalangan:

*Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,
Nuqta chun ostin bo‘lur har qaydakim yozilsa “lab”.*

Navoiyning ushbu bayti Munisni ham to‘lqinlantiradi. Jumladan, Munis bu obrazning o‘ziga xos talqinini quyidagicha yaratadi:

*Nuqtayi xoli g‘alat tushmish labining ustida,
Bersa ruxsat olg‘amen ul nuqtani ondin yalab.*

Salafarining ijodidan ilhomlangan shoir Furqat bu obrazni poetik jihatdan takomilga yetkazdi va unga yangicha talqin bilan yondashdi:

*“Nuqta lab ustida bejodur?” – dedim, aydi kulub:
“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda?!”*

Furqat ustozlari Munisning bir, Navoiyning ikki misradagi fikrlarini yarim misrada ifodalab bera oldi. Bu borada adabiyotshunos N. Jabborovning talqinlari o‘rinlidir: “...hazrat Navoiyda ham, Munisda ham ifoda monolog tarzida berilgan.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Furqat uni dialogga – oshiq va ma'shuqa muloqotiga aylantiradi. Natijada nuqta (yorning xoli) lab ustida bejo ekani haqidagi savoliga ma'shuqa ham savol bilan javob beradi: (O'ylab gapiryapsanmi), qudrat kotibi qanday qilib adashishi mumkin, axir nuqtani qanday yozish uning ixtiyorida-ku". [1,235].

O'zbek adabiyotida "dunyo" tushunchasi murakkab va ko'p qirrali talqinlarga ega. Bu tushuncha she'riyat va nasrda hayotning o'tkinchiligi, insoniy qadriyatlar, taqdir, shodlik va qayg'u, yuksak ma'naviylik hamda dunyoviylikning o'zaro ziddiyatlari kabi mavzular bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy, Furqat va boshqa shoirlarning ijodida dunyo o'tkinchi bir makon sifatida tasvirlanar ekan unga tanqidiy yondashish ham bor. Zeroki, navoiyshunos Ibrohim Haqqulovning ta'biricha: "Tashxis ya'ni shaxslantirish usuli orqali dunyoning aldoqchi, zolim, baqosiz singari salbiy sifat va yomonliklarini ko'rsatish bu adabiyotda ancha qadimiy an'ana edi" [4,145-149]. Xususan, hazrat Navoiy quyidagi misralarda dunyoni doimiy qayg'u va tashvishlar maskani sifatida tasvirlaydi.

*Dunyo g'amidin ko'ngulni xoli ko'rmagil,
Kim, bu uyda shodlik topmoq bo'lmas.*

Shoir Furqat ham dunyoni insonning taqdiri va sinovlar maydoni deb bilgan. Uning o'tkinchiligi, sadoqatsizligi hech kimsaga vafo qilmasligini yozadi. Taqdirni esa dunyo bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda yaxshilik va yomonlikning muvozanati saqlanishligini quyidagi misralarida ifodalab beradi:

*Bu dunyo g'aroyib dunyo, hech kimga sodiq emas,
Ko'rdim, yaxshi bilan yomon o'rnini o'zgartirar.*

O'zbek mumtoz adabiyotida me'roj voqeasi diniy, ma'naviy va badiiy jihatdan katta ahamiyat kasb etgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu voqea Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning Me'roj safari haqida Qur'oni karimda va hadislarda bayon qilingan voqeaga asoslanadi.

Shoirlar o'z asarlarida Payg'ambarimizning ma'naviy safarlarini ilohiy yaqinlik va ruhiy poklanishning eng yuqori cho'qqisi sifatida talqin qilganlar. Adabiyotimizda Me'roj voqeasi haqida yozish har bir ijodkorda uchraydigan an'anaviy mavzu bo'lib, u odatda qasida, masnaviy yoki qit'a shaklida ifoda etilgan. Bu borada adabiyotshunos olim M.Muhiddinovning fikrlari o'rinnidir: "Qayd etamizki, Payg'ambar me'roji haqida shoirlar ko'p yozganlar, bu voqea o'zining xayolot va tasavvurotlariga boyligi, sufiyona karomatu tavajjuh va ishqu oshiqlik tushunchalari bilan yaqinligi balki bunga sabab bo'lgandir. Me'roj kechasi haqida qasida va g'azallar ham yozilgan. Aftidan, bu an'anaviy mavzulardan hisoblanib, har bir shoir bunda ham kuchini sinab ko'rgan" [9,50].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Alisher Navoiyning ijodida Me'roj voqeasi talqini, asosan, uning tasavvufiy va diniy asarlarida beriladi. Xamsa dostonlari, xususan, "Farhod va Shirin" dostonining 5 bobini me'roj kechasiga bag'ishlagan. Navoiy Me'roj xabarini quyidagicha tasvirlagan:

*«Ki yetsun olam ahlidin nihoni,
Muhib sarvaqtig'a mahbubi joni».
Bu so'z mahbub eshitgach lol bo'ldi,
Navidi vasldin behol bo'ldi*

Olam ahlidan yashirin holatda sevgan (Muhib) huzuriga sevimli (Mahbub)ning keltirilishi xushxabarini eshitgan Payg'ambarimiz (s. a. v.) ning hayron qolishi va hushini yo'qotishlik holatlari go'zal ifodalar bilan tasvirlangan.

Zokirjon Furqatning "Hajnoma" asarida ham me'roj talqinini uchratamiz. Asarning to'rtinchi tarji' Me'roj voqeasi tasviriga bag'ishlangan bo'lib, u quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Risolat tojdori shohi "Lav lak",
Nubuvvat bahrida bir gavhari pok.*

Furqatning ushbu asarini tahlil qilarkanmiz, avvalo shuni aytish joizki, shoir asarda hadis va qur'on oyatlaridan o'rinli foydalangan holda Iqtibos she'riy san'atining go'zal namunalari yaratgan. Jumladan, ushbu baytdagi "Lav laka lama xolaqtu-l-aflak" - (Ey Muhammad,) agar sen bo'lmasang edi, men bu falaklarni yaratmagan bo'lardim") mazmunidagi hadisdan qisman iqtibos olingani haqida ustozimiz professor N.Jabborov dissertatsiyasida ma'lumot uchraydi [1,100].

Jumladan, Shoir quyidagi baytda Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.) ning Haq bilan yuzlashuvi tasvirini keltirar ekan "Qur'oni Karim" "Kavsar" surasining birinchi oyatidan parcha keltiradi:

*Dedi Tangri: "Habibim, yo Muhammad,
Tila mandin bu dam "Inno a'toynak".*

Ustoz Navoiyda esa visol ya'ni Alloh taolo va Payg'ambarimiz tasviri o'ziga xos go'zal tasvirlar bilan quyidagicha ifodalanadi:

*Chiqorib o'zlugi tufrog'idin gard,
Ne o'zluqkim, o'zidin ham bo'lub fard.
Makoni bo'lmayin juz bemakonliq,
Nishoni qolmayin juz benishonliq.
Chu qolmay ne nishoni, ne makoni,
Topib maqsad makonidin nishoni.
... Inoyat ilgi olamdin nihoni,
Harimi vahdat ichra chekti oni.*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Alisher Navoiy va Furqatning asarlarida talqin qilingan Me'roj voqeasi ma'naviy izlanish, Allohga yaqinlashish va inson ruhining yuksalishini anglatadi. Har ikki shoir ham bu voqeani o'z asarlarida insonning ma'naviy o'sishidagi ulkan ahamiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida talqin qilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy va Furqat o'rtasidagi adabiy izdoshlik ikki buyuk shoirning tasavvufiy va ma'naviy yo'nalishlaridagi umumiylikni ta'kidlaydi. Furqat o'z she'riyatida nafaqat Alisher Navoiyning tasavvufiy va ma'naviy an'alarini o'zlashtirgan balki ijodida uning fikrlarini davom ettirgan shoir hamdir. U Navoiyning ma'naviy qarashlarini o'z she'riyatida o'zlashtiribgina qolmay, shu orqali Navoiy merosining keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim rol o'ynagan.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. N. Jabborov. Maoniy ahlining sohibqironi. T;Adabiyot. 2021, 207-bet
2. Alisher Navoiy G'aroyib us-sig'ar 114-bet.
3. Munis. Tanlangan asarlar. Мунис. Т.: O'zdatnashr,. 1957. B. 64.
4. Haqqulov I. Zanjirband she'r qoshida. Toshkent: Yosh gvardiya, 1989. B 145-149.
5. Mehmed Fuad Ko'prulu. Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar. A.: 1991. B. 467.
6. Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. T.: 2004. B. 235.
7. Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat. T.: Fan, 1977. B. 107.
8. Maqsud Shayxzoda. Furqat haqida ilmiy maqolalar T.: 1958. B.143.
9. Muhiddinov Muslihiddin. Komil inson –adabiyot ideali. T.: 2015